

“TASDIQLANGAN”

“Toshkent Invest kompaniyasi”

aksiyadorlik jamiyat

yagona muassisining

2023-yil 10 - noyabr dagi

7 -sonli qarori bilan

**Toshkent shahar hokimi
vazifasini bajaruvchi**

Sh.Umurzakov



M.O.

**“Toshkent Invest kompaniyasi” aksiyadorlik jamiyatining
“Kuzatuv kengashi a’zolariga haq va kompensatsiyalar to’lash tartibi
to‘g‘risida”**

Nizom

Toshkent – 2023 yil

1-bob. Umumiy qoidalar

1. “Toshkent Invest kompaniyasi” aksiyadorlik jamiyatining “Kuzatuv kengashi a’zolariga haq va kompensatsiyalar to’lash tartibi to‘g‘risida” Nizom (keyingi o‘rinlarda – Nizom) O‘zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatları va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida” va “Davlat mulkini boshqarish to‘g‘risida” Qonunlari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlari hamda “Toshkent Invest kompaniyasi” aksiyadorlik jamiyati Ustavi va “Kuzatuv kengashi to‘g‘risida” Nizomi, shuningdek Korporativ boshqaruv kodeksi va Davlat ishtirokidagi korxonalar uchun Korporativ boshqaruv qoidalari tavsiyalariga muvofiq ishlab chiqilgan.

2. Mazkur Nizom “Toshkent Invest kompaniyasi” aksiyadorlik jamiyati (keyingi o‘rinlarda – Kompaniya) Kuzatuv kengashi a’zolariga ular o‘z vazifalarini bajarib turgan davr uchun haq to‘lash va o‘z vazifalarini bajarish bilan bog‘liq xarajatlarining o‘rnini qoplash uchun kompensatsiya qilish, Kuzatuv kengashi a’zolari fuqarolik javobgarligini sug‘urtalash tartibi, shuningdek to‘lanadigan haq va kompensatsiyalarning miqdorini belgilaydi.

3. Kuzatuv kengashi a’zolariga to‘lanadigan haq va kompensatsiyalar ularning shaxsiy bank hisobvarag‘iga (plastik kartasiga) pul mablag‘larini o‘tkazish orqali milliy valyuta so‘mda Kompaniyaning joriy xarajatlari hisobidan amalga oshiriladi.

4. Kuzatuv kengashi a’zolariga to‘lanadigan haq xorijiy valyuta ekvivalentida belgilanadi, agar Kuzatuv kengashi a’zolari xarajatlarni xorijiy valyutada amalga oshirgan bo‘lsa, Kompaniya tomonidan haq va kompensatsiyalar milliy valyuta so‘mda to‘lov amalga oshiriladigan sanadagi O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan kurs bo‘yicha to‘lanadi.

5. Mazkur Nizomga muvofiq to‘lanadigan haq va kompensatsiyalar, sug‘urta xarajatlari miqdori Kompaniyaning yillik biznes-rejasida (budgetida, xarajatlar smetasida va boshqa tegishli hujjatlarda) aks ettiriladi.

6. Mazkur Nizomga muvofiq amalga oshiriladigan to‘lovlar miqdori jismoniy shaxslardan olinadigan daromad soliq‘ini hisobga olmaydi va to‘lovlar to‘liq amalga oshiriladi. To‘lovlar hisoblanishida ularning miqdoriga qonunchilikka muvofiq soliqlar hisoblab chiqiladi va Kompaniya soliq agenti sifatida soliq to‘lovlarini amalga oshiradi.

7. Mazkur Nizomga muvofiq haq va kompensatsiyalar to‘lash uchun hisob-kitob davri kalender yil hisoblanadi.

8. Kompaniya Kuzatuv kengashi a’zolariga haq ularning kalender yil davomida ularning Kuzatuv kengashi a’zoligi vakolati amalda bo‘lgan davri uchun kalender kunlari hisobida mutanosib ravishda amalga oshiriladi.

9. Kuzatuv kengashi a’zolariga haq va kompensatsiyalar to‘lanishi mazkur Nizom, shu jumladan Kuzatuv kengashining mustaqil a’zolari bilan ularning Kuzatuv kengashi a’zoligi bo‘yicha tuzilgan shartnoma (kelishuv) asosida Kompaniya Kuzatuv kengashi a’zoligi vakolati boshlangan kundan tugagan kungacha amalga oshiriladi.

10. Kuzatuv kengashi a'zolariga to'lanadigan haq va kompensatsiyalarni hisob-kitob qilish uchun ma'lumotni o'z vaqtida taqdim qilinishi uchun javobgarlik Kompaniya Kuzatuv kengashi kotibiyatiga yuklatiladi.

11. Kuzatuv kengashi a'zolariga haq va kompensatsiyalarni to'g'ri hisob-kitob qilish va to'lash uchun javobgarlik Kompaniya xodimlariga ish haqi hisoblash va to'lashni amalga oshiruvchi Kompaniyaning tegishli tarkibiy bo'linmasi va unga bevosita rahbarlik qiluvchi Boshqaruv a'zosiga yuklatiladi.

12. Kuzatuv kengashi a'zosi yozma arizasi bilan unga mazkur Nizomga muvofiq to'lanishi lozim bo'lgan haq va kompensatsiyalaridan to'liq yoki qisman voz kechishi yohud ularni xayriya maqsadlariga yo'naltirishi mumkin.

13. Kuzatuv kengashi a'zolari mazkur Nizomda belgilangan hollardan tashqari o'z vakolatlarini amalga oshirganligi uchun boshqa haq va (yoki) kompensatsiyalarni olishga haqli emas, bundan Kompaniya Aksiyadorlarining umumiyligini qarori bilan to'landigan haq va (yoki) kompensatsiyalar mustasno.

2-bob. Kuzatuv kengashi a'zolariga haq to'lash

14. Kuzatuv kengashi a'zolari har biriga Kuzatuv kengashi a'zoligi bo'yicha kalendar yil uchun to'lanadigan haqning eng ko'p miqdori 60 000 (oltmish ming) AQSh dollari ekvivalentini tashkil etadi.

15. Kuzatuv kengashi a'zolari har biriga Kuzatuv kengashi a'zoligi bo'yicha kalendar yil uchun to'lanadigan haq mazkur Nizom 14-bandida belgilangan haqning eng ko'p miqdori doirasida quyidagi turlarga bo'linadi va to'lanadi:

asosiy (bazaviy) haq;

qo'shimcha (o'zgaruvchan) haq;

kalendor yildagi ishlar natijasi bo'yicha haq.

16. Kuzatuv kengashi a'zolari har biriga kalender yil uchun to'lanadigan asosiy (bazaviy) haqning eng ko'p miqdori mazkur Nizom 14-bandida belgilangan haq eng ko'p miqdorining 25 foizi, 15 000 (o'n besh ming) AQSh dollari ekvivalentidan ko'p bo'limgan miqdorni tashkil etadi.

17. Kompaniya tomonidan Kuzatuv kengashi a'zolari har biriga asosiy (bazaviy) haq kalendor yilning har oyi uchun MHTEKM 1 250 (bir ming ikki yuz ellik) AQSh dollari ekvivalenti miqdorida hisobot oyidan keyingi oyning o'ninchidagi kechiktirmay to'lanadi.

18. Kuzatuv kengashi a'zolari har biriga kalender yil uchun to'lanadigan qo'shimcha (o'zgaruvchan) haq ularning Kuzatuv kengashi va uning qo'mitalari majlislaridagi faol ishtiroki uchun yillik miqdori asosida to'lanadi.

19. Kuzatuv kengashi a'zolari har biriga kalender yil uchun to'lanadigan ularning Kuzatuv kengashi va uning qo'mitalari majlislaridagi faol ishtiroki uchun qo'shimcha (o'zgaruvchan) haqning eng ko'p miqdori mazkur Nizom 14-bandida belgilangan haq eng ko'p miqdorining 25 foizi, 15 000 (o'n besh ming) AQSh dollari ekvivalentidan ko'p bo'limgan miqdorni tashkil etadi.

20. Kuzatuv kengashi a'zolarining Kuzatuv kengashi va uning qo'mitalari majlislaridagi faol ishtiroki ularning mazkur majlislarda haqiqatan (shaxsan) ishtirok etganligidan kelib chiqib belgilanadi.

21. Kompaniya tomonidan Kuzatuv kengashi a'zolari har biriga Kuzatuv kengashi va uning qo'mitalari majlislaridagi faol ishtiroki uchun qo'shimcha (o'zgaruvchan) haq kalendar yilning har choragi uchun 3 750 (uch ming yetti yuz ellik) AQSh dollari ekvivalenti miqdorigacha hisobot choragidan keyingi o'ning o'n beshinchini kunidan kechiktirmay to'lanadi.

22. Kuzatuv kengashi a'zosiga Kuzatuv kengashi va uning qo'mitalari majlislaridagi faol ishtiroki uchun hisobot choragiga to'lanadigan qo'shimcha (o'zgaruvchan) haq:

30 foizga kamaytiriladi, agar Kuzatuv kengashi a'zosi hisobot choragidagi Kuzatuv kengashi va uning qo'mitalari majlislarining 1/3 va undan kam qismida ishtirok etmagan bo'lsa;

60 foizga kamaytiriladi, agar Kuzatuv kengashi a'zosi hisobot choragidagi Kuzatuv kengashi va uning qo'mitalari majlislarining 1/3 qismidan ko'prog'ida ishtirok etib, 2/3 va undan kam qismida ishtirok etmagan bo'lsa;

to'lanmaydi, agar Kuzatuv kengashi a'zosi hisobot choragidagi Kuzatuv kengashi va uning qo'mitalari majlislarining 2/3 qismidan ko'prog'ida ishtirok etmagan bo'lsa;

to'lanmaydi, agar hisobot choragida Kuzatuv kengashining biror-bir majlisi o'tkazilmagan bo'lsa, bundan Kuzatuv kengashi qo'mitalarining majlislari mustasno.

23. Kuzatuv kengashi a'zolari har biriga kalendar yil uchun to'lanadigan kalendar yildagi ishlari natijasi bo'yicha haq hisobot yilidagi Kompaniya Kuzatuv kengashi faoliyatining samaradorlik muhim ko'rsatkichlari (keyingi o'rinnarda – SMK) bajarilishi hamda Kompaniyada korporativ boshqaruv tizimini baholash natijalariga ko'ra to'lanadi.

24. Kuzatuv kengashi a'zolari har biriga kalendar yil uchun Kompaniya Kuzatuv kengashi faoliyati SMK bajarilishiga ko'ra ularning samaradorlik yig'indi ko'rsatkichi (keyingi o'rinnarda – SYK) yillik miqdori asosida to'lanadigan kalendar yildagi ishlari natijasi bo'yicha haqning eng ko'p miqdori mazkur Nizom 14-bandida belgilangan haq eng ko'p miqdorining 25 foizi, 15 000 (o'n besh ming) AQSh dollari ekvivalentidan ko'p bo'limgan miqdorni tashkil etadi.

25. Kompaniya tomonidan Kuzatuv kengashi a'zolari har biriga Kompaniya Kuzatuv kengashi faoliyatining SMK bajarilishiga ko'ra kalendar yildagi ishlari natijasi bo'yicha haq hisobot kalendar yili uchun Kuzatuv kengashi faoliyati SMK bajarilishining SYK yillik miqdori Aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishi qarori bilan tasdiqlangan kundan boshlab ikki oy davomida to'lanadi. Bunda SMK, SYK va ularning bajarilish foizlarining hisoblangan yillik miqdori auditorlik tashkiloti tomonidan o'tkazilgan tekshirish natijasiga muvofiq Aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishi muhokamasiga kiritiladi.

26. Kompaniya Kuzatuv kengashi faoliyati samaradorligi Kuzatuv kengashi faoliyati SMK bajarilishining SYK yillik miqdori:

100 foizdan oshgan baholansa, “yuqori darajada”;

90 foizdan 100 (ushbu daraja ham kiradi) foizgacha baholansa, “yetarli darajada”;

80 foizdan 90 (ushbu daraja ham kiradi) foizgacha baholansa, “o‘rtacha darajada”;

60 foizdan 80 (ushbu daraja ham kiradi) foizgacha baholansa, “yetarli darajada emas”;

40 foizdan 60 (ushbu daraja ham kiradi) foizgacha baholansa, “past darajada”;

40 foizdan kam baholansa, “qoniqarsiz” deb e’tirof etiladi.

27. Kuzatuv kengashi a’zosi har biriga hisobot kalendar yili uchun Kompaniya Kuzatuv kengashi faoliyati SMK bajarilishiga ko‘ra ularning SYK yillik miqdori asosida to‘lanadigan kalendar yildagi ishlar natijasi bo‘yicha haq:

a) Kuzatuv kengashi faoliyatining samaradorligi “past darajada” yoki “qoniqarsiz” deb e’tirof etilsa, to‘lanmaydi;

b) Kuzatuv kengashi faoliyatining samaradorligi “yetarli darajada”, “o‘rtacha darajada” yoki “yetarli darajada emas” deb e’tirof etilsa, uning miqdori Kompaniya Kuzatuv kengashi faoliyati SMK bajarilishining SYK yillik miqdoriga ko‘paytirish yo‘li bilan hisoblanadi va mazkur Nizom 22-bandida belgilangan tartibda Kuzatuv kengashi va uning qo‘mitalari majlislaridagi faol ishtiroki uchun to‘lanadigan qo‘srimcha (o‘zgaruvchan) haq hisobot kalendar yili davomida qancha summaga kamaytirilgan bo‘lsa, shu summaga kamaytirilib to‘lanadi. Bunda kamaytiriladigan summa Kompaniya Kuzatuv kengashi faoliyatining SMK bajarilishiga ko‘ra to‘lanadigan kalendar yildagi ishlar natijasi bo‘yicha hisoblangan haq miqdoridan oshishiga yo‘l qo‘yilmaydi;

c) Kuzatuv kengashi faoliyatining samaradorligi “yuqori darajada” deb e’tirof etilsa, uning eng ko‘p miqdorida hisoblanadi va to‘lanadi.

28. Kuzatuv kengashi a’zolari har biriga kalendar yil uchun Kompaniyada korporativ boshqaruv tizimini baholash natijalariga ko‘ra kalendar yildagi ishlar natijasi bo‘yicha haqning eng ko‘p miqdori mazkur Nizom 14-bandida belgilangan haq eng ko‘p miqdorining 25 foizi, 15 000 (o‘n besh ming) AQSh dollari ekvivalentidan ko‘p bo‘limgan miqdorni tashkil etadi.

29. Kuzatuv kengashi a’zolari har biriga kalendar yil uchun to‘lanadigan Kompaniyada korporativ boshqaruv tizimini baholash natijalariga ko‘ra kalendar yildagi ishlar natijasi bo‘yicha haqning eng ko‘p miqdori mazkur Nizom 14-bandida belgilangan haq eng ko‘p miqdorining 25 foizi, 15 000 (o‘n besh ming) AQSh dollari ekvivalentidan ko‘p bo‘limgan miqdorni tashkil etadi.

30. Kompaniyada korporativ boshqaruv tizimini baholash natijalari bo‘yicha mustaqil baholovchi tashkilotning xulosasiga ko‘ra baholash natijasi “yuqori” (600-1200 ball yoki 50-100%) deb tan olingan bo‘lsa, mazkur xulosa Aksiyadorlarning umumiyligini yig‘ilishi qarori bilan tasdiqlangan kundan boshlab bir oy davomida Kompanidan Kuzatuv kengashi a’zolari har biriga hisobot

kalendar yili uchun kalendar yildagi ishlar natijasi bo'yicha haq mazkur Nizom 29-bandida belgilangan eng miqdorida hisoblanadi va mazkur Nizom 22-bandida belgilangan tartibda Kuzatuv kengashi va uning qo'mitalari majlislaridagi faol ishtiroki uchun to'lanadigan qo'shimcha (o'zgaruvchan) haq hisobot kalendar yili davomida qancha summaga kamaytirilgan bo'lsa, shu summaga kamaytirilib to'lanadi. Bunda kamaytirladigan summa Kompaniyada korporativ boshqaru tizimini baholash natijalariga ko'ra kalendar yildagi ishlar natijasi bo'yicha hisoblangan haq miqdoridan oshishiga yo'l qo'yilmaydi.

3-bob. Kuzatuv kengashi a'zolari xarajatlarini kompensatsiya qilish

31. Kuzatuv kengashi a'zolariga o'z vazifalarini bajarish, jumladan yashash joyidan tashqarida bo'lgan aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishlarida hamda Kuzatuv kengashi va uning qo'mitalari yig'ilishlarida (majlislarida), shuningdek Kompaniya, aksiyadorlar va Kuzatuv kengashi raisi tomonidan tashabbus qilingan yig'ilish, forum, konferensiya, taqdimot va boshqa tadbirlarda ishtiroki bilan bog'liq xarajatlari ularning o'rmini qoplash uchun Kompaniya tomonidan kompensatsiya qilinadi.

32. Kuzatuv kengashi a'zolari xarajatlari o'rmini qoplash uchun kompensatsiyalarning eng ko'p miqdori quyidagicha belgilanadi:

a) belgilangan joyga borish va doimiy ish yoki yashash joyiga qaytish uchun transport xarajatlariga (transportda yo'lovchilarni majburiy shaxsiy sug'urtalash uchun sug'urta polisi, yo'l hujjatlarini rasmiylashtirish bo'yicha xizmatlar to'lovi va h.k.):

havo transporti bo'yicha tejamli-klass tarifi miqdorida, agar uch soatdan ko'proq uchish sharoiti bo'lsa biznes-klass tarifi miqdorida;

temir yo'l transporti bo'yicha biznes-klass vagoni tarifi miqdorida;

avtomobil transporti bo'yicha yig'ilish va tadbirlar o'tkaziladigan aholi yashaydigan punktdagi transfer yoki bunday aholi yashaydigan punktga eng yaqin aeroport (temir yo'l vokzali), yig'ilish va tadbirlar o'tkaziladigan joygacha mehmonxona va qaytish yo'l xarajatlari haqiqiy miqdorida;

b) yig'ilish va tadbirlar o'tkaziladigan davrda, shu jumladan Kuzatuv kengashi a'zosining kelish/ketish kunlari davomida yashash uchun (turar joyni ijarasi bo'yicha) xarajatlariga 5 yulduzli mehmonxonaning "standart" klassidan yuqori bo'limgan turar-joyni ijaraga olish bo'yicha xarajatlar miqdorida (bunda, Kuzatuv kengashi a'zosi iltimosiga asosan Kompaniya mehmonxonada turar-joyni oldindan band qilib qo'yishga va Kompaniya mablag'lari hisobidan ijara haqini to'lashga haqli);

d) yig'ilish va tadbirlar davomida vakillik xarajatlariga (nonushta, tushlik, kechki ovqat, transport ta'minoti, muzokaralar vaqtida bufet xizmatlarini ko'rsatish, tashkilot shtatida bo'limgan tarjimon xizmatiga haq to'lash bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarga) ularning haqiqiy miqdorida (bunda, Kompaniya o'z mablag'lari hisobidan vakillik xarajatlarini kompensatsiya qilmasdan amalga oshirishga haqli);

e) sutkalik xarajatlariga Kompaniyaning ichki me'yoriy hujjatlariga muvofiq Kompaniya Boshqaruvi uchun belgilangan eng yuqori miqdorda (bunda, Kompaniyaning ichki me'yoriy hujjatlariga muvofiq sutkalik xarajatlarni amalga oshirish talablari inobatga olinadi).

33. Kuzatuv kengashi a'zolari sarflangan xarajatlar kompensatsiyasini olish uchun Kompaniya Kuzatuv kengashi kotibiyatiga haqiqiy xarajatlarni tasdiqllovchi hujjatlarning asl nusxasini (bilet/elektron bilet, chiqish taloni, mehmonxonada yashash uchun hisobvaraq va h.k.) ilova qilgan holda ariza yuboradi.

34. Kuzatuv kengashi kotibiyati mazkur Nizom 33-bandida ko'rsatilgan hujjatlar olingan kundan e'tiboran besh ish kunidan kechiktirmay sarflangan xarajatlarni kompensatsiya qilish to'g'risida bildirishnomani olingan hujjatlarni ilova qilgan holda mazkur Nizom 11-bandida belgilangan Kompaniya Boshqaruvi a'zosiga yuboradi.

35. Kompaniya tomonidan kompensatsiyalar to'lovi Kuzatuv kengashi a'zosidan tegishli hujjatlar olingan sanadan e'tiboran o'n ish kunidan kechiktirmay amalga oshiriladi.

36. Kuzatuv kengashining a'zolariga kompensatsiyalar to'lash mazkur Nizom va Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi qarori bilan belgilangan tartibga muvofiq amalga oshiriladi. Bunda, Kuzatuv kengashi a'zolari kompensatsiya qilinadigan xarajatlarni oqilona va tejamkor amalga oshirishlari lozim.

4-bob. Kuzatuv kengashi a'zolari fuqarolik javobgarligini sug'urtalash

37. Kompaniya o'z mablag'lari hisobidan Kuzatuv kengashi a'zolari fuqarolik javobgarligini sug'urtalashi mumkin.

38. Sug'urta hodisalari ro'yxati, sug'urta summasi miqdori, zararni qoplash tartibi va boshqa muhim shartlar Kompaniya va sug'urtalovchi o'rtasida tuzilgan sug'urta shartnomasiga muvofiq belgilanadi.

39. Qonunchilik talablari doirasida Kuzatuv kengashi a'zolari fuqarolik javobgarligini sug'urtalash to'g'risida qaror qabul qilish, sug'urta limitlarini va sug'urtalovchini belgilashni tashkil etish Kompaniya Aksiyadorlarining umumiy yig'ilishi tomonidan amalga oshiriladi.

5-bob. Axborotni oshkor qilish

40. Kompaniya Boshqaruvi Kuzatuv kengashi a'zolariga to'langan haq va kompensatsiyalar to'g'risidagi axborotni qonunchilikka muvofiq oshkor qilinishini ta'minlaydi.

6-bob. Yakuniy qoidalar

41. Mazkur Nizom Kompaniya Aksiyadorlarining umumiy yig'ilishi qarori bilan tasdiqlangan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

42. Mazkur Nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar Kompaniya Aksiyadorlarining umumiy yig'ilishi qarori bilan kiritiladi.

43. Mazkur Nizomda tartibga solinmagan munosabatlar O'zbekiston Respublikasining qonunchiligi bilan tartibga solinadi.

44. Agar O'zbekiston Respublikasining qonunchiligidagi mazkur Nizomda nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi qoidalari qo'llaniladi.

45. Kompaniya Kuzatuv kengashi a'zolari va Kompaniya mazkur Nizomning ijrosi bilan bog'lik yuzaga keladigan nizolar yoki e'tirozlarni muzokaralar orqali qisqa muddatlarda hal qilish maqsadida imkon darajada barcha choralarini ko'rish majburiyatini oladilar. Kompaniya Kuzatuv kengashi a'zosi va Kompaniya o'rtasida o'zaro kelishuv asosida hal qilinmagan mazkur Nizomga tegishli har qanday nizo qonunchilikda belgilangan tartibda ko'rib chiqiladi.

46. Ushbu Nizom talablarini buzgan shaxslar qonunchilikka muvofiq javobgarlikka tortiladilar.